

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 iyul holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **701 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalarning ulushi **1,3 f.p** ko'paydi
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **565 taga oshgan.**


2018 yilning yanvar-iyun oyida Viloyatda 798 ta yilning boshiga nisbatan korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'ssatayotgan yangi tashkil etildi, bu esa korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9 taga kamaygan. Buning natijasida joriy

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 39,9 % kamaygan hamda ularning soni 233 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

korxonalar va tashkilotlar ning asosiy ulushi Guliston shahrida (32,0 %), Sirdaryo (15,4%), Sayhunobod (8,6 %) va Yangiyer (7,4 %) tuman shaxarlarida kuzatilmoxda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,
2018 yilning 1 iyul holatiga)


	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
Sirdaryo viloyati	10679	100,0	9953	100,0
Guliston shaxri	3392	31,8	3182	32,0
Sirdaryo tumani	1673	15,7	1531	15,4
Sayhunobod tumani	870	8,1	855	8,5
Yangiyer shaxri	814	7,6	741	7,4
Guliston tumani	805	7,6	732	7,4
Mirzaobod tumani	769	7,2	724	7,3
Boyout tumani	815	7,6	748	7,5
Xovos tumani	516	4,8	474	4,8
Oqoltin tumani	405	3,8	380	3,8
Sardoba tumani	376	3,5	358	3,6
Shirin shaxri	244	2,3	228	2,3

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da



01.01.2018 y.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 93,2 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulishi 6,8 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,2 f.p. ko'paygan.




01.07.2018 y.


[Yellow square] faoliyat ko'rsatayotganlar [Blue square] faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,3 % savdoda, 11,7 % sanoatda, 9,2 % qurulishda, 12,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 5,5 % tashish va saqlash, 1,6 % axborot va aloqa, 1,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi




2018 yil yanvar-iyun holatiga 798 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,1 % ga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Guliston shaxrida (209 ta), Sirdaryo (119 ta), Sayhunobod (80 ta) va Yangiyer shahrida (74 ta) tashkil etilgan. Eng kam Shirin shaxrida (19 ta), Xovos va Sardoba (42 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (193 ta), sanoatda (119 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (134 ta) va qurilishda (124 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (10 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (9 ta) va tashish va saqlashda (22 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'r-satayotgan korxonalarining ulushi savdoda (-0,5 f.p.), sanoatda (-0,1 f.p.), axborot va aloqada (-0,2 f.p.), tashish va saqlashda (-0,3 f.p.), boshqa faoliyat turlarida (-0,7 f.p ga) kamayganligi, buning natijasida, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,2 f.p.), qurulishda (+1,1 f.p.), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (+0,1 f.p), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,4 f.p.), ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.07.2018 y.	01.07.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1,3	1,2	0,1
Savdo	26,3	26,8	-0,5
Axborot va aloqa	1,6	1,8	-0,2
Sanoat	11,7	11,8	-0,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	12,0	11,8	0,2
Qurilish	9,2	8,1	1,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,6	5,2	0,4
Tashish va saqlash	5,5	5,8	-0,3
Boshqa turlari	26,7	27,5	-0,8

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).**

2018 yil 1 iyul holatiga 8013 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2791 ta, oilaviy korxonalar – 77 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 4833 ta, aktsiyadorlik jamiyatları – 23 tani va boshqalar 289 tani tashkil etadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 97 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 26 taga yoki 26,8 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 71 tasi qo'shma korxonalar, 26 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarining soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumani 44 ta (45,4 %), Guliston shaxri 21 ta (21,6 %), Yangiyer shaxri 10 ta (10,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xovost tumani 1 ta (1,0 %), Sardoba tumani 1 ta (1,0 %), Guliston tumani 1 ta (1,0 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hudular kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyul holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 67 ta (69,1 %), savdoda 10 ta (10,3 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa 6 ta (6,2 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa qurilishda 5 ta (5,2 %), tashish va saqlashda 4 ta (4,1 %), boshqa tarmoqlar 4 ta (4,1 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta (1,0 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turib-diki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek tashkil etilmaganlar, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'gri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yilning yanvar-iyun oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 13 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9 taga kao'paygan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 10 ta, korxonalar yangi tashkil etilgan.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyul holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 7969 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyun holatiga qaraganda 8,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2725 tasi (34,2 %) Guliston shahriga, 1283 tasi (16,1 %) Sirdaryo, 690 tasi (8,7 %) Sayxunobod tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 7969 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 2605 tasi (32,7 %) – savdoda, 1142 tasi (14,3 %) - sanoatda, 906 tasi (11,4 %) - qurilishda, 1169 tasi (14,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 551 tasi (6,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 547 tasi (6,9 %) - tashish va saqlashda, 155 tasi (1,9 %) - axborot va aloqa sohasida, 82 tasi (1,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 812 tasi (10,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-iyul holatiga 730 ta yaqin kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 5,9 foizga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Guliston shahrida (178 ta), Sirdaryo (108 ta), Sayxunobod (80 ta) va Guliston tumanlarida (51 ta) tashkil etilgan. Eng kam Shirin shahrida (18 ta), Sardoba (36 ta) tumanida tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (193 ta), sanoatda (119 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (134 ta) va qurilishda (124 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (10 ta), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (9 ta) hamda tashish va saqlashda (22 ta) tashkil etilgan.



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 iyul holatiga 84 tani tashkil etib, ulardan 77 tasi yoki 91,7 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha **23,3 %**ga oshganligini ta`kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 44,1 % yoki 34 tasi sanoat, 19,5 % yoki 15 tasi savdo, 18,2 % yoki 14 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 10,4 % yoki 8 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,3 % yoki 1 tasi axborat va aloqa hamda 6,5 % yoki 5 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
boshlig'i**

Nashr uchun mas'ul: **K.Yusupov**
(0367) 225-31-00

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan**